

## METHODS OF LOGOPEDIC INTERACTION IN THE ELIMINATION OF DYSLALIA SPEECH DEFECTS IN PRESCHOOL CHILDREN

Khushnazarova Muqaddas

Namangan area Pop District School 23 logopedi

### Annotation

Through this article, it is possible to gain knowledge of methods of logopedic interaction in the elimination of speech defects in children with dyslalik in preschool age

**Keywords: Dyslalia, practical method, exercises, play, didactics, speech, oral methods, story, communication.**

Kishilar o'rtasidagi muomalaning asosiy vositasi nutq hisoblanadi. Inson nutq yordamida o'z fikrini, his-tuyg'ularini izhor etadi, hamda boshqalarning hissiyotlarini bilib oladi, xalqimizda shunday ibratili ibora bor: "Inson aqli farosati – uning nutqining aniqligida namoyon bo'ladi". Nutq buzulishi esa muloqotning ma'lum bir holatda cheklanganligi, bunday hollarda bola shaxsini shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Logopedik amaliyotda dislalik bolalar bilan olib boriladiga korreksion-logopedik ishlarda: amaliy, ko'rgazmali va og'zaki metodlardan foydalaniladi, u yoki bu metodni qo'llash nutqiy nuqson xususiyati bilan belgilanadi.

**Amaliy metodlarga** mashqlar, o'yin va modellashtirish kiritiladi.

**Mashqlar** – bu berilgan amaliy va aqliy harakatlarning ma'lum ketma-ketlikda bola tomonidan takrorlanishidir. Artikulyatsiya va ovoz kamchiliklarini bartaraf etishda bunday mashqlar ishning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Artikulyatsion mashqlarni doimiy ravishda bajarib turish, tovushni nutqqa quyish va to'g'ri talaffuz etish uchun zamin tayyorlaydi.

O'yinli mashqlar (masalan, harakatlarga taklid: utin yorish, daraxtlarning kimirlashi, ayikning yurishi va h.k.) foydalanish bolalarda yaxshi kayfiyatni uyg'otadi.

**O'yin metodi** - o'yin faoliyatini boshqa usullar ya'ni namoyish qilish, tushuntirish, savollar bilan birgalikda olib borishni nazarda tutiladi.

O'yin metodida asosiy, yetakchi rolni tarbiyachi o'ynaydi. U korreksion ishlarni vazifalari va bosqichlariga mos ravishda o'yin turini tanlaydi, rollarni bo'lib beradi va bolalarning faoliyatini faollashtiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan turli xil o'yinlar olib boriladi: ashulali, didaktik, harakatli, ijodiy, saxnalashtirilgan va h.k. Ularning kay tarika qo'llanishi korreksion ishning vazifalari va bosqichi, nutqiy nuqson tuzilishi, bolalarning yosh va individual-ruhiy xususiyatlari bilan belgilanadi.

**Ko'rgazmali metodlar** - bu bilim kunikma va malakalarni egallashda ko'rgazmali kurollar va texnik vositalar yordamida beriladigan ma'lumotlardir.

Ko'rgazmalardan foydalanish nutqiy materialni egallashni yengil-lashtiradi, nutqiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Sezgi obrazlariga tayanish, nutqiy ko'nikma va malakalarni aniq, tushunarli qilib o'zlashtirishni ta'minlaydi, hamda logopedik ishning samaradorligini oshiradi.

Ko'rgazmali metodlarga kuzatish, rasmlarni ko'rish, maketlar, diafilm, kinofilmlarni ko'rish, magnitafonlarni eshitish, hamda topshirik namunasini, harakat usulini ko'rsatish kabilar qiradi.

Kuzatish - rasm, artikulyatsiya profili, maket, artikulyatsiya tovushlari, mashqlarni qo'llash va ko'rsatish bilan bog'liq.

Aytib utilgan ko'llanmalardan foydalanish, bolalar tasavvurini kengaytirish, bilish faoliyatini rivojlantirish va logopedik ishning samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Ko'rgazmali vositalar qo'yidagi talablarga javob berishi kerak:

- 1) hammaga yaxshi ko'rinishi;
- 2) bolaning individual-ruhiy va yosh xususiyatlarini hisobga olib tanlanishi;
- 3) korrektsiyalash davridagi ma'lum bosqich vazifalariga mos logopedik ishlarni tanlash;
- 4) aniq va tushunarli nutq bilan izohlanishi.

Ko'rgazmalardan foydalanish ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lishi mumkin: sensor sohadagi kamchiliklarni korrektsiyalash (rang, shakl, kattaliklar va h.k. haqidagi tasavvurlar), fonematik idroqni rivojlantirish (rasmlarda ma'lum bir tovush ishtirok etgan so'zni topish), tovush analizi va sintezini rivojlantirish (syujetli rasmlardan nomida 5 ta tovush ishtirok etgan rasmni topish), tovushning to'g'ri talaffuzini mustahkamlash, lug'at boyligi, nutqning grammatik tuzilishi, bog'langan nutq ustida ishlash (syujetli rasmlar asosida hikoya tuzish).

Magnitofon, plastinkadagi ovozlarni taqrorlash logoped bilan birgalikda suhbat bilan olib boriladi. Bolalarning nutqi yozilgan magnitofon lentalarini tahlil qilish, nuqsonlarni ajratib olish, korrektsiya-on ish bosqichlaridagi nutqni solishtirish uchun xizmat qiladi va ishning samaradorligini oshiradi.

Diafil'm, kinofil'mlardan tovushlarni nutqda mustahkamlash, hikoya, suhbat qilish jarayonida hamda bog'langan va tushunarli nutq qo'nikmalarini rivojlantirishda, duduklanishni bartaraf etishda foydalaniladi.

Logopedik ishda **og'zaki metodlardan** bolaning yosh xususiyatlari, nutqiy nuqson tuzilishi, korrektsion ta'sirning maqsadi, vazifasi, bosqichini hisobga olgan holda foydalaniladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan ishda og'zaki metodlar, amaliy va ko'rgazmali metodlar bilan birgalikda olib boriladi.

Maktab yoshidagi bolalar bilan ishlashda asosan og'zaki metodlarga tayaniladi. Misol uchun, duduklanishni bartaraf etishda o'qilgan kitob, ma'ruza, yod olingan she'r, o'qiganini hikoya qilish, shaxsiy tajribalarini gapirib berish xususida suhbatlar o'tkaziladi.

Og'zaki metodlarning asosiy shakllari bu – hikoya, suhbat va o'qish.

Hikoya – bu ta'limning shunday shakli, bunda har qanday bayon ta'riflovchi harakterga ega bo'ladi. Undan bolalarda biron voqea, hodisa haqida tasavvurlarni hosil qilish, namunalni nutqni eshittirish, bolalarni keyingi mustaqil ishlarga tayyorlash, lug'atni boyitish, nutqning grammatik shakllarini mustahkamlash maqsadida foydalaniladi.

Didaktik vazifalarning xususiyatlariga qarab tayyorlov, xulosalovchi, umumlashtiruvchi suhbatlar qo'llaniladi. Tayyorgarlik suhbatlari jarayonida logopedik bolalarning bilimlarini aniqlaydi, yangi mavzuni o'zlashtirish uchun ko'rsatma beradi. Misol uchun, *sh-s* tovushlari differentsiatsiyasida tayyorgarlik suhbatlari davrida *sh* hamda *s* tovushlari ajratiladi, ularning artikulyatsiyasi aniqlashtiriladi. So'ngra tovushlar solishtiriladi, mavjud bilimlar umumlashtiriladi. Xulosalovchi suhbatda nutqiy ko'nikma va malakalar differentsiatsiyalashtiriladi va mustahkamlanadi.

Har qanday metoddan dislalik bolaning yosh xususiyatlari, nutq nuqsonlarining tuzilishi, korrektsion ta'sirning maqsadi va vazifasi inobatga olgan holda foydalaniladi. Bolalarning nutq rejimi ular tomonidan zarur nutq mashqlarini tanlab olishni, ular tomonidan to'g'ri nutq talablarini, turli sharoitlarda to'g'ri nutq ko'nikmalarini mashq qildirilishini nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Raximovna, Teshaboeva Feruza. "METHODICAL CLUSTER-AS AN INNOVATIVE MECHANISMS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF HIGHER EDUCATION." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 100-106.

2. Mansurjonovich, J. M. (2023). Designing an electronic didactic environment to ensure interdisciplinary integration in the teaching of " Informatics and information technologies" during professional education. *Confrencea*, 11(11), 78-82.
3. Sobirkhonovna, M. M. (2020, December). Professional Training Of Future Speakers In The Period Of Independent Study. In *Archive of Conferences* (Vol. 10, No. 1, pp. 75-76).
4. Sobirkhonovna, M. M. (2020). An Innovative Mechanisms to Increase the Effectiveness of Independent Education of Future Defectologists. *International Journal on Integrated Education*, 3(11), 210-211.
5. Mahmudova, M. S. (2020). The Role Of Independent Education In The Formation Of Professional Competencies Of Prospective Speech Therapists. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(10), 358-363.
6. Maxmudova, M., & Vaziraxon, A. (2022, November). Tayanch–Harakati A’zolari Falajlangan Bolalar Lug’atini Rivojlantirish Yo’llari. In *Conference Zone* (pp. 259-263).
7. Maxmudova, M., & Azizabonu, B. (2022, November). Ruhiy Rivojlanishi Sustlashgan Bolalar Lug’atining Psixik Rivojlanish Bilan Bog’liqligi. In *Conference Zone* (pp. 238-242).
8. Juraev, M. M. (2022). Prospects for the development of professional training of students of professional educational institutions using electronic educational resources in the environment of digital transformation. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(10), 158-162.
9. Juraev, M. M. (2022). The value of open mass competitions in the process of digitalization of extracurricular activities of schoolchildren. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(10), 338-344.
10. Jo’rayev, M. (2022). Professional ta’lim jarayonida fanlararo uzvilik va uzliksizlikni ta’minlash o’quvchilari kasbiy tayyorgarligining muhim omili sifatida. *Zamonaviy dunyoda amaliy fanlar: Muammolar va yechimlar*, 1(29), 43-46.
11. Juraev, M. M. (2021). OA Qo’ysinov Description of the methodological basis for ensuring interdisciplinary continuity of the subject “Computer Science and Information Technology” in vocational education. *JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed*, 7(10).
12. Makhmudov Khurshid Shukhratovich. IMPORTANCE OF DIDACTIC GAMES IN SPEECH DEVELOPMENT OF MENTALLY RETARDED CHILDREN. *Asian Journal of Multidimensional Research*. ISSN: 2278-4853 Vol. 11, Issue 11, November 2022 SJIF 2022 = 8.179 A peer reviewed journal. Pages 20-23
13. Shuxratovich, Maxmudov Xurshid. "SOCIO-PSYCHOLOGICAL OF CHILDREN WITH SPEECH IMPAIRMENT ADAPTATION FEATURES." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 243-248.
14. Sobirxonovna, M. M. (2023). The genealogy of thoughts of the manifestations of ancient antiquity in the study of the speech deficit of dislaliya. *Confrencea*, 11(11), 17-20.
15. Maxmudova, M. S. Logopediya. BibTeX EndNote RefMan
16. Rakhimovna, Teshaboeva Feruza. "IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THE MODULE" SPECIAL METHODS OF TEACHING THE MOTHER TONGUE" IN HIGHER EDUCATION AS A PEDAGOGICAL, METHODOLOGICAL PROBLEM."
17. Тешабоева, Ф. Р. "ТЕХНОЛОГИИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ МОДУЛЯ «СПЕЦИАЛЬНАЯ МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ РОДНОГО И РУССКОГО ЯЗЫКА» В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ." *Образование. Наука. Культура: традиции и современность*. 2022.

18. Rakhimovna, Teshaboyeva Feruza. "DIDACTIC AND MOTIVATIONAL OPPORTUNITIES FOR TEACHING IN HIGHER EDUCATION ON THE BASIS OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES." (2021).
19. Рахимова, Хуршидахон Содиковна. "FACTORS IN THE FORMATION OF MOTIVATION FOR INDEPENDENCE IN CHILDREN ON THE BASIS OF AUDITORY AND SPEECH REHABILITATION AFTER COCHLEAR IMPLANTATION." *Scientific Bulletin of Namangan State University* 2.10 (2020): 391-396.
20. Тешабоева, Ф. Р. (2020). PROBLEMS OF TEACHING THE MODULE "SPECIAL METHODS OF TEACHING THE MOTHER LANGUAGE" AT THE UNIVERSITY. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (5-7), 229-232
21. Sodiqjon o'g'li, Akbarov Sardor. "O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNING JORIY HOLATI VA MAVJUD MUAMMOLARI." *Conference Zone*. 2022.
22. Maxmudova, Madinaxon, and Babayeva Azizabonu. "RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALAR LUG'ATINING PSIXIK RIVOJLANISH BILAN BOG'LIQLIGI." *Conference Zone*. 2022.
23. Shermatovna, Erkaboyeva Nigora, and Akbarov Sardor Sodiqjon O'g'li. "Conditions of inclusive education." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3.7 (2022): 1-4.
24. Teshaboeva F.R. Effective factors for the organization of theoretical training in the module "Special methods of teaching the mother tongue" in the field of higher defectological education. *Scientific Bulletin of Namangan State University* 2 (10), 383-387
25. Maxmudova, M., and O. Zikirova. "SPEECH THERAPIST AND FAMILY COLLABORATION IN OVERCOMING SEVERE SPEECH DEFICITS." (2021).
26. Rahimna, Teshaoeva Feruza. "THE USE OF COMPUTER GAMES TO DEVELOP SPEECH CAPABILITIES FOR CHILDREN WITH SPEECH DEFICIENCY." In *Conference Zone*, pp. 130-132. 2022.
27. Sadikovna, PhD Raximova Xurshidaxon. "Stages of pedagogical and psychological rehabilitation of children with cochlear implants with hearing impairments." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 192-198.
28. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon, and Bakirova Muhlisakhan. "PROVIDING PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL SUPPORT TO HEARING IMPAIRED CHILDREN." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3.11 (2022): 501-506.
29. Oppakhho'jayev, son of Khojikhujazimjon. TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING INCLUSIVE READINESS OF FAMILIES BASED ON A COMPETENT APPROACH. *Asian Journal of Multidimensional Research* ISSN: 2278-4853 Vol. 11, Issue 11, November 2022 SJIF 2022 = 8.179 A peer reviewed journal. Pages 346-353
30. Sodiqovna, Rakhimova Khurshidahon. "USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF SPEECH SKILLS IN CHILDREN WITH HEARING DISABILITIES." *Euro-Asia Conferences*. Vol. 1. No. 1. 2021.
31. Yuldasheva, Ayupova Mukarramxon, and Rakhimova Khurshidahon Sodiqovna. "CORRECTION-PEDAGOGICAL WORK SYSTEM OF PREPARATION OF CHILDREN FOR INDEPENDENT ACTIVITY AFTER COCHLEAR IMPLANTATION." *Archive of Conferences*. Vol. 10. No. 1. 2020.
32. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon, et al. "ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING TASNIFI VA TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI." *Conference Zone*. 2023.

33. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon. "Features of cochlear implantation rehabilitation." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.1 (2023): 333-336.
34. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon. "Methods Of Working On Dialogical Speech In Out-Of-Course Activities With Hearing-Impaired Students." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3.11 (2022): 521-527.
35. Islamjon, Khatamjon. "MECHANISMS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF SCIENTIFIC EDUCATION IN THE SYSTEM OF SPECIAL EDUCATION THE MECHANISM OF INCREASING THE EFFICIENCY OF CLASSES SCIENTIFIC EDUCATION IN THE SYSTEM SPECIAL IMAGES." *Asian Journal of Multidimensional Research*.